

REPRODUKTIV SALOMATLIK VA BEPUSHTLIK MUAMMOLARI

Mamurjanova Maftuna Sirojiddin qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17096728>

Annotatsiya. Maqolada reproduktiv salomatlik tushunchasi, uning zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati hamda bepushtlik muammosining asosiy sabablari tahlil qilinadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha reproduktiv yoshdagi har oltinchi juftlik bepushtlikdan aziyat chekadi. Ushbu muammo ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi bilan birga, milliy demografik siyosat uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotda ayol va erkak bepushtligining asosiy etiologik omillari, diagnostika usullari hamda davolash yondashuvlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: reproduktiv salomatlik, bepushtlik, etiologik omillar, in vitro fertilizatsiya, profilaktika.

РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ И ПРОБЛЕМЫ БЕСПЛОДИЯ

Аннотация. В статье анализируется понятие репродуктивного здоровья, его значение в современной медицине, а также основные причины бесплодия. По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), каждая шестая супружеская пара репродуктивного возраста в мире страдает бесплодием. Данная проблема приводит к социальным, психологическим и экономическим последствиям, а также является актуальной для национальной демографической политики. В исследовании освещаются основные этиологические факторы женского и мужского бесплодия, методы диагностики и подходы к лечению.

Ключевые слова: репродуктивное здоровье, бесплодие, этиологические факторы, экстракорпоральное оплодотворение, профилактика.

REPRODUCTIVE HEALTH AND INFERTILITY ISSUES

Abstract. The article analyzes the concept of reproductive health, its importance in modern medicine, and the main causes of infertility. According to the World Health Organization (WHO), every sixth couple of reproductive age worldwide suffers from infertility.

This issue leads to social, psychological, and economic consequences and is also highly relevant to national demographic policy. The study highlights the main etiological factors of female and male infertility, diagnostic methods, and treatment approaches.

Keywords: reproductive health, infertility, etiological factors, in vitro fertilization, prevention.

KIRISH. Reproktiv salomatlik insonning umumiy sog'lom turmush tarzini shakllantirishda eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta'rifiga ko'ra, reproduktiv salomatlik — bu nafaqat kasallik va nogironlikdan holilik, balki shaxsning nasl qoldirish qobiliyatini to'liq va erkin amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy farovonlik holatidir. Demak, reproduktiv salomatlik masalasi faqat tibbiyot sohasi bilan cheklanmay, balki demografiya, ijtimoiy fanlar, psixologiya va hatto davlat siyosati uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida ekologik muhitning buzilishi, zararli odatlarning keng tarqalishi, stressning ortishi va ovqatlanish madaniyatidagi o'zgarishlar reproduktiv tizimga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, nikoh yoshining ortib borishi, farzand ko'rishni kechiktirish tendensiyasi ham bepushtlik darajasining o'sishiga sabab bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida har oltinchi juftlikda tug'ish qobiliyatida muammolar kuzatilmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham bu masala davlat miqyosida diqqat markazida turibdi.

Mamlakatimizda "Onalik va bolalikni muhofaza qilish", "Oila va ayollar salomatligi" dasturlari qabul qilinib, respublika va hududiy miqyosda ixtisoslashgan reproduktiv salomatlik markazlari faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, oilaviy shifokorlar va ginekologlar faoliyatida bepushtlikni erta tashxislash va profilaktika qilish bo'yicha alohida yo'nalishlar ishlab chiqilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bepushtlik faqat tibbiy muammo emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik oqibatlariga ega jarayondir. Ayrim hollarda bu holat oilaviy nizolar, ruhiy tushkunlik, jamiyatda noto'g'ri stereotiplarning shakllanishiga olib keladi. Shu sababli ham reproduktiv salomatlikni ta'minlash va bepushtlik muammosini hal etish masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi.

ASOSIY QISM. Reproductiv salomatlik tushunchasi so'nggi o'n yilliklarda tibbiyot va ijtimoiy fanlarda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) uni **"insonning nasl qoldirish qobiliyatini erkin va ongli ravishda amalga oshirish imkonini beradigan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati"** sifatida ta'riflaydi. Bu ta'rifdan ko'rinadiki, reproduktiv salomatlik faqat ayol yoki erkaklarning fiziologik imkoniyatlari bilan cheklanmay, balki kengroq ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va psixologik omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Reproduktiv salomatlik masalasi milliy demografik rivojlanish, aholining sog'lom avlodni shakllantirish, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Agar jamiyatda tug'ilish darajasi pasaysa, o'rtacha umr davomiyligi qisqarsa yoki farzand ko'rish qobiliyatida muammolar kuchaysa, bu holat millat salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Reproduktiv salomatlikni ta'minlash quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

- **Demografik barqarorlik omili sifatida.** Sog'lom avlod tug'ilishi va aholining tabiiy o'sishini ta'minlash uchun reproduktiv salomatlik muhim ko'rsatkichdir.

- **Ayol va erkaklar salomatligining asosiy tarkibiy qismi sifatida.** Bunda nafaqat tug'ilish jarayoni, balki jinsiy tarbiya, gormonal muvozanat, reproduktiv tizim kasalliklarining oldini olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

- **Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.** Farzand ko'rishdagi qiyinchiliklar oilaviy nizolarga, psixologik tushkunlikka va jamiyatda salbiy stereotiplarning shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazishi mumkin.

- **Shaxsiy farovonlik omili sifatida.** Insonning baxtiyorlik hissi, oilaviy totuvlik va shaxsiy hayot sifati ko'p jihatdan reproduktiv salomatlikka bog'liqdir.

Shuningdek, reproduktiv salomatlikning buzilishi (bepushtlik, homiladorlikdagi patologiyalar, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar) nafaqat tibbiy, balki psixologik va ijtimoiy

muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli reproduktiv salomatlikni mustahkamlash profilaktika choralarini kengaytirish, aholining keng qatlamlarini muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham reproduktiv salomatlik bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosan quyidagilarga qaratilgan:

- onalik va bolalikni muhofaza qilish;
- ayollar va erkaklarning muntazam tibbiy ko'rikdan o'tishini yo'lga qo'yish;
- nikohdan oldingi tibbiy maslahatlarni majburiy tartibda joriy qilish;
- reproduktiv salomatlik markazlari faoliyatini kengaytirish.

Shunday qilib, reproduktiv salomatlik shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydigan ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning ahamiyati nafaqat tibbiyot sohasi, balki ijtimoiy barqarorlik va millat kelajagi uchun ham beqiyosdir.

Bepushtlik muammosining sabablari ko'p qirrali bo'lib, tibbiy, psixologik hamda ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha juftliklarning qariyb 15 foizi bepushtlik muammosiga duch keladi va bu ko'rsatkich yil sayin ortib bormoqda. Bepushtlik sabablari ayollarda ham, erkaklarda ham kuzatilishi mumkin va ayrim hollarda ularning ikkalasiga ham bir vaqtning o'zida taalluqli bo'ladi. Ayollarda uchraydigan bepushtlik sabablari ko'pincha gormonal muvozanat buzilishlari, tuxumdonlar faoliyatining pasayishi, polikistoz tuxumdon sindromi, tuxum yo'llarining tug'ma yoki orttirilgan patologiyalari, bachadon bo'shlig'idagi anomaliyalar va jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalardan kelib chiqadi. Shuningdek, ayollarning yosh omili ham katta rol o'ynaydi, chunki 35 yoshdan keyin tug'ish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi, tuxum hujayralar soni va sifati esa kamayadi. Erkaklarda esa bepushtlik ko'pincha spermogramma ko'rsatkichlarining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni spermatozoidlar soni va harakatchanligi kamayishi, shakliy anomaliyalar, shuningdek, gormonal yetishmovchilik, varikotsele kabi patologiyalar yoki surunkali infeksiyalar natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, turmush tarziga oid omillar – chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, giyohvandlik, stress, noto'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollikning yetishmasligi ham reproduktiv tizimga jiddiy zarar yetkazadi.

Bugungi kunda ekologik omillar ham bepushtlikning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Atmosfera ifloslanishi, kimyoviy moddalar bilan ishlash, radiatsiya ta'siri, og'ir metallar, pestitsid va boshqa toksik moddalar inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatib, reproduktiv salomatlikni izdan chiqaradi. Bundan tashqari, jamiyatdagi ayrim ijtimoiy muammolar, masalan, nikoh yoshining ortib ketishi, farzand ko'rishni kechiktirish, oilaviy stress va psixologik muhitning sog'lom emasligi ham bepushtlik darajasini oshirmoqda.

Shu sababli bepushtlikni faqat tibbiy emas, balki kengroq ijtimoiy muammo sifatida baholash lozim. Chunki u oila barqarorligiga, shaxsiy baxtga va jamiyatning demografik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun keng qamrovli chora-tadbirlar zarur bo'lib, ular orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni reproduktiv salomatlik masalalarida ongli ravishda tarbiyalash, nikohdan oldingi tibbiy maslahatlarni keng joriy etish, infeksiyon kasalliklarning oldini olish va ekologik xavflarni kamaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bepushtlikni aniqlash va davolash murakkab jarayon bo'lib, u kompleks diagnostika usullarini va zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Avvalo, har bir juftlikning anamnezini chuqur o'rganish, turmush tarzi, surunkali kasalliklari va irsiy omillarni hisobga olish zarur.

Diagnostika jarayoni bosqichma-bosqich olib boriladi: birinchi navbatda laborator tekshiruvlar, gormonlar darajasini aniqlash, infeksiyon kasalliklarni aniqlovchi testlar, spermogramma va ultratovush tekshiruvlari o'tkaziladi. Ayollarda tuxumdonlar faoliyatini baholash uchun follikulometriya, bachadon naylarining o'tkazuvchanligini ko'rsatadigan gisterosalpingografiya, endometriy holatini aniqlash uchun esa gisteroskopiya keng qo'llaniladi.

Erkaklarda esa spermatozoidlar soni, sifati va harakatchanligi alohida e'tibor bilan tekshiriladi, zarur hollarda DNK fragmentatsiyasi va genetik testlar ham qo'llaniladi.

Diagnostika bosqichida aniqlangan sabablar asosida davolash strategiyasi belgilanadi.

Agar muammo gormonal buzilishlar bilan bog'liq bo'lsa, dori-darmon va gormonal terapiya buyuriladi, infeksiyalar mavjud bo'lsa, antibiotik va antiviral vositalar qo'llanadi.

Tuxumdon faoliyatining susayishi yoki ovulyatsiya buzilishlarida stimulyatsiya usullari, bachadon naylari yoki varikotsele kabi jarrohlik muammolarida esa operativ muolajalar amalga oshiriladi. So'nggi yillarda yordamchi reproduktiv texnologiyalar keng rivojlandi: in vitro fertilizatsiya (IVF), sun'iy urug'lantirish (IUI), intratsitoplazmatik spermatozoid in'ektsiyasi (ICSI) kabi usullar ko'plab juftliklarga farzandli bo'lish imkoniyatini yaratmoqda. Shu bilan birga, embrionlarni muzlatib saqlash, donorlik va surrogat onalik kabi imkoniyatlar ham mavjud bo'lib, ular ayrim hollarda samarali yechim sifatida qo'llanilmoqda.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, bepushtlikni davolash jarayoni faqat tibbiy yondashuvlar bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Bu jarayon davomida psixologik qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega, chunki uzoq davom etuvchi davolanish jarayoni er-xotinlarning ruhiy holatiga jiddiy ta'sir qiladi. Shu sababdan mutaxassislar ko'pincha psixologik maslahat va oilaviy terapiyani ham tavsiya etadilar. Natijada, diagnostika va davolashning kompleks yondashuvi nafaqat bepushtlik muammosini hal etishga, balki oilaning mustahkamlanishi va jamiyatda sog'lom avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bepushtlik nafaqat tibbiy, balki chuqur ijtimoiy va psixologik oqibatlariga ega jarayon hisoblanadi. Insoniyat tarixida farzand ko'rish oila va jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri sifatida qaralgan, shuning uchun ham tug'ish qobiliyatidagi muammolar odatda kuchli ruhiy bosim va ijtimoiy ta'sirlar bilan kechadi. Jamiyatimizda bepushtlik ko'pincha faqat ayol shaxsiga bog'lab qo'yiladi, holbuki tibbiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, erkaklar bepushtligi ham ayollar bepushtligi kabi keng tarqalgan. Bunday noto'g'ri qarashlar ayollarga nisbatan ortiqcha bosim o'tkazib, ularning ruhiy tushkunlikka tushishiga, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotishiga va oilaviy nizolarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Erkaklarda ham farzand ko'rishdagi muammolar ko'pincha o'zini past baholash, asabiylik, ijtimoiy izolyatsiya va hatto depressiyaga olib kelishi mumkin.

Bepushtlikning psixologik oqibatlari turlicha namoyon bo'ladi: oilaviy munosabatlarda sovuqlik, ajrimlar sonining ortishi, jamiyatda o'zini keraksiz his qilish, hatto ruhiy kasalliklarga moyillik kuchayishi kuzatiladi. Ayrim hollarda bepushtlikka chalingan juftliklar muolajalarga sarflanadigan yuqori xarajatlar tufayli iqtisodiy qiyinchiliklarga ham duch keladilar, bu esa ularning turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, jamiyatdagi stereotiplar va noto'g'ri qarashlar muammoni yanada murakkablashtiradi, chunki odamlar ko'pincha o'z muammolarini boshqalardan yashirishga intiladilar va bu ruhiy yukni yanada og'irlashtiradi.

Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda dunyo miqyosida ham, O'zbekistonda ham bepustlik masalalarida psixologik yordam ko'rsatish tizimi shakllanib bormoqda. Reproktiv salomatlik markazlari qoshida psixolog-maslahatchilar faoliyat yuritmoqda, ayrim klinikalarda oilaviy terapiya yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa bemorlarning davolanish jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga, ruhiy bosimni yengillashtirishga va oilaviy totuvlikni saqlashga xizmat qilmoqda.

Demak, bepustlik muammosini faqat tibbiy davolash bilan chegaralab bo'lmaydi, balki uning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini ham chuqur o'rganish va bartaraf etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa

Reproktiv salomatlik va bepustlik muammolari bugungi kunda nafaqat tibbiyot, balki jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda ko'rib chiqilganidek, reproduktiv salomatlik shaxsning umumiy sog'lom turmush tarzini belgilovchi omil bo'lib, demografik barqarorlikni saqlash va sog'lom avlodni tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bepustlik esa ko'p qirrali sabablar bilan bog'liq bo'lib, gormonal buzilishlar, infeksiyalar, ekologik omillar, yosh va turmush tarziga oid xususiyatlar bilan izohlanadi.

Shuningdek, bepustlikning ijtimoiy va psixologik oqibatlari ham nihoyatda keng ko'lamli: oilaviy totuvlikning buzilishi, ruhiy tushkunlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va jamiyatdagi salbiy stereotiplarning shakllanishi shular jumlasidandir. Shuning uchun bepustlikni faqat tibbiy muammo sifatida emas, balki kompleks ijtimoiy masala sifatida ham ko'rish zarur.

Muammoni hal etishda diagnostika va davolashning zamonaviy yondashuvlari — in vitro fertilizatsiya, sun'iy urug'lantirish, gormonal va jarrohlik muolajalar muhim o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, yoshlarni reproduktiv salomatlik haqida to'g'ri ma'lumot bilan ta'minlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa qilib aytganda, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash va bepustlikning oldini olish shaxsiy farovonlik, oilaviy baxt-saodat hamda milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaralishi lozim. Bu borada tibbiyot sohasi, davlat siyosati va jamiyat birgalikda harakat qilgandagina muammoni samarali hal qilish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). *Global prevalence of infertility, overview and recommendations*. Geneva: WHO, 2023.
2. Boivin J., Bunting L., Collins J.A., Nygren K.G. *International estimates of infertility prevalence and treatment-seeking: potential need and demand for infertility medical care*. Human Reproduction, 2007; 22(6): 1506–1512.
3. Inhorn M.C., Patrizio P. *Infertility around the globe: new thinking on gender, reproductive technologies and global movements in the 21st century*. Human Reproduction Update, 2015; 21(4): 411–426.

4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. *Reproduktiv salomatlik bo‘yicha milliy dastur*. Toshkent, 2022.
5. Zafarova M.M. Ayollar reproduktiv salomatligining dolzarb muammolari. *Tibbiyot jurnali*, 2021; №4: 65–72.
6. Shukurova G.X. Oila salomatligi va bepustlik muammolarining ijtimoiy-psixologik jihatlar. *Ijtimoiy fanlar axborotnomasi*, 2020; №2: 118–124.